



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA YOZUV KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Alimova Kamola Xayrulla qizi,

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti
Logopediya kafedrasida o'qituvchisi.

koma050585@mail.ru Tel.: +998977475585

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1570>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 15-aprel 2026-yil

Tasdiqlandi: 17-aprel 2026-yil

Jurnal soni: 18-A

Maqola raqami: 15

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

grafomotor ko'nikma, yozuv malakasi, mayda motorika, vizual idrok, fonetik tahlil, shtirixlash, fazoviy mo'ljall, inklyuziv ta'lim, logopedik yondashuv, psixofiziologik jarayonlar, yozuvni o'rgatish metodikasi

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Yozuvning grafomotor ko'nikmalarini shakllanish jarayoni juda murakkab va u o'z ichiga inson aqliy faoliyatining turli sohalarini qamarab oladi. Maktab ta'limiga tayyorlashning asosiy mezonlaridan biri – bolalarda o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Grafomotor ko'nikma – bu yozadigan qo'lning odatiy holati va harakati bo'lib, u harflar va ularning bog'lanishini ifodalaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda grafomotor ko'nikmalarni shakllantirish ularning keyingi savodxonlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, yozuvga tayyorgarlik jarayonida nafaqat motor harakatlar, balki nutqiy va kognitiv jarayonlarni ham rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, nutq nuqsoniga ega bolalarda grafomotor faoliyatni rivojlantirishda individual yondashuv va maxsus korektsion mashqlar tizimi samarali natija beradi. Shuningdek, vizual idrok va fazoviy tasavvurni rivojlantirishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar bolalarning yozuv jarayoniga moslashuvini osonlashtiradi. Bu esa ularning maktab ta'limiga psixologik va amaliy jihatdan tayyorgarligini oshiradi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 15 april 2026

Approved: 17 april 2026

Volume: 18-A

Paper number: 15

KEYWORDS

graphomotor skills, writing skills, fine motor skills, visual perception, phonetic analysis, hyphenation, spatial orientation, inclusive education, speech therapy approach, psychophysiological processes, writing teaching methodology

ANNOTATION

The process of developing graphomotor writing skills is very complex and involves various areas of human mental activity. One of the main criteria for preparing children for school is developing their reading and writing skills. Graphomotor skills are the habitual position and movements of the writing hand that represent letters and their connections. The formation of graphomotor skills in preschool children directly affects their subsequent level of literacy. Therefore, in the process of preparing for writing, it is important to develop not only motor movements, but also speech and cognitive processes. In particular, in the development of graphomotor activity in children with speech disorders, an individual approach and a system of special corrective exercises give effective results. Also, classes aimed at developing visual perception and spatial imagination facilitate children's adaptation to the writing process. This increases their psychological and practical readiness for school education.

Kirish. Mamlakatimizda ta'limning barcha bo'g'inlari izchil rivojlantirilmoqda. Yangi ta'lim maskanlari qurilib va zamonaviy jihozlanib, yoshlarning bilim olishiga barcha sharoit yaratilmoqda. O'quv dasturlari yangilanib, eng ilg'or tajribalar joriy etilmoqda. Jumladan, inklyuziv ta'lim tizimini takomillashtirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayni sohada bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4860-sonli qarori bu borada amalga oshirilishi mo'ljallangan sa'y-harakatlar uchun huquqiy asos bo'ldi. E'tiborlisi, "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ham nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga jalb qilinishi va faol ishtirokini ta'minlovchi inklyuziv ta'lim va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish, yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Nogironligi bo'lgan yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini, mehnatga bo'lgan qiziqishini oshirish hamda ilm-fan, texnika, san'at va sportga jalb etish borasida bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, tarixga nazar solsak insoniyat tarixining chuqur ildizlari, kishilik jamiyatining taraqqiyoti va bosqichlarini o'rganishda yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuv- faqatgina axborot almashinish vositasi emas, balki insoniyat ma'naviy merosining avlodlar avlodga yetib kelishida ulkan hissa qo'shgan tafakkur mahsuli bo'lib hisoblanadi.

Tarixdan kishilik jamiyatining sivilizatsion bosqichga ko'tarilishida asosiy urg'u- "yozuv"ga qaratiladi. Tarixdan ma'lumki, sivilizatsiya insoniyat tarixidagi uch katta tarixiy davrning (yovvoyilik, vaxshilik va sivilizatsiya) sivilizatsiya bosqichini olimlar yozuvning paydo bo'lishi bilan boshlangan,- deb ta'kidlaydilar. Bu hodisa bundan 5 - 6 ming yil muqaddam boshlanadi. Ilk yozuv rasmlardan iborat edi, biroq vaqt o'tishi bilan yer yuzining turli joylarida alifbo paydo bo'la boshladi. Yozuvning kashf etilishi sivilizatsiyaning boshlanishini bildiradi,- deb hisoblashga sabab shundan iboratki, insonda o'tmish hodisalari to'g'risida xotiralar

saqlab qolish va shu tariqa o'z tajribasini boshqalarga qoldirish imkoniy paydo bo'ldi. Yozuv - insoniyat tafakkuri yaratgan ma'naviy boyliklarni asrlardan-asrlarga, avlodlardan-avlodlarga yetkazuvchi bebaho vositadir. U insonning eng oliy kashfiyotlaridan biri. Zamonaviy fanda yozuvga: psixofiziologik, psixolingvistik va neyropsixologik tomondan qaralib, ularning har biri jarayonning mazmuni, tuzilishi va mexanizmini to'ldirish, chuqurlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish, xususan grafomotor malakalarni rivojlantirish masalasi bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Ushbu jarayon nutq rivoji, mayda motorika, vizual idrok va kognitiv faoliyat bilan uzviy bog'liq murakkab pedagogik-psixologik tizim sifatida qaraladi.

V.V. Voronkova boshlang'ich savod o'rgatish jarayonida yozuv va o'qish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini tahlil qilib, grafik elementlarni idrok etish hamda qo'l harakatlarining muvofiqligi yozuv malakasining asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi. Muallif yozuvni o'rgatishda bosqichma-bosqich mashqlar tizimi samaradorligini asoslab beradi. [1, 45–60-b.]

I.V. Prishchepova nutqida kamchiliklari bo'lgan bolalarda yozuvdagi qiyinchiliklarni o'rganar ekan, dizorografiya muammosining asosiy sabablari nutqiy rivojlanishdagi yetishmovchiliklar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqotda fonematik idrok va nutqiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish yozuvni egallashning muhim sharti sifatida ko'rsatiladi. [2, 45–62-b.]

M.M. Bezrukix grafomotor ko'nikmani yozuv jarayonidagi qo'l harakatlarining avtomatlashgan tizimi sifatida talqin qiladi. U mayda motorika, vizual idrok va harakat koordinatsiyasining o'zaro bog'liqligini asoslab, yozuvni kognitiv va motor jarayonlar birligi sifatida tushuntiradi. [2, 18–30-b.]


Alimova K.X. maktabgacha yoshdagi nutq nuqsoniga ega bolalarda grafomotor ko'nikmalarni rivojlantirishni o'rganib, maxsus mashqlar tizimi orqali mayda motorika va fazoviy tasavvurni rivojlantirish samarali ekanligini ko'rsatadi. Muallif yozuvga tayyorgarlik jarayonida vizual tahlil va motor nazoratning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. [3, 310–318-b.]

Shuningdek, Alimova K.X. inklyuziv ta'lim sharoitida bolalarda yozuv va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda ota-onalar va pedagoglar hamkorligining muhimligini asoslaydi. Tadqiqotda individual yondashuv va kompleks korreksion ishlarning zarurligi ko'rsatib o'tiladi. [4, 311–314-b.]

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko'nikmalarini, xususan grafomotor malakalarni shakllantirish jarayonini o'rganishda nazariy va amaliy metodlar uyg'unligidan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika, logopediya va psixologiya sohasidagi ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va qiyosiy tahlil tashkil etdi. Amaliy bosqichda kuzatish, suhbat, diagnostik topshiriqlar hamda grafomotor mashqlar (chizish, shtirixlash, nuqtalarni birlashtirish, kontur bo'yicha chizish) qo'llanildi. Shuningdek, bolalarning mayda motorika va vizual-motor koordinatsiyasini baholash uchun maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida korreksion-pedagogik yondashuvga tayanilib, individual va differensial ta'lim tamoyillari hisobga olindi. Olingan natijalar sifat va miqdoriy tahlil usullari asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari. Yozuv ko'nikmasini shakllantirish vositalari, maxsus xatoliklarni oldini olish metodlari haqida gapirganda, bu jarayonning mazmuni, tuzilishi va amalga oshirish yo'llarini aniqlab olish kerak, shuning uchun bizga bu jarayonda "yozuv" tushunchasining qaysi tavsifi qiziq bo'lishini aniqlab olishimiz lozim.

Metodik adabiyotlarda ko'pincha "yozuv" va "yozma nutq" mazmunan ajratilmaydi va ular yagona jarayon sifatida tavsiflanadi. Shunga qaramasdan ular bir xil emas. Zamonaviy tadqiqotchilar bu ikkita tushunchani farqlashni taklif etishadi, chunki, qator psixofiziologik umumiylik bilan birga ular qator aniq farqlarga ham ega. Grafomotor ko'nikma- bu yozadigan qo'lning odatiy holati va harakati bo'lib, u harflar va ularning bog'lanishini ifodalaydi (M.M. Bezrukix). To'g'ri shallangan grafomotor ko'nikma harflarni aniq, chiroyli, tushunarli va tez yozish imkonini beradi. Noto'g'ri shakllangan grafomotor ko'nikma



Grafomotor ko'nikmalarga quyidagilar kiradi:

- Barmoqlar mayda motorikasining rivojlanganligi (barmoqlarning harakat tezligini va ularning kuchini nazorat qilish).
- Vizual tahlil va sintez (obyektlarga nisbatan fazoda mo'ljal olish, o'ng va chap tomonlarni tushunish).
- Chizish (ustidan bostirib chizish, shtirixlash, predmetlarni bostirib chizish, tugallanmagan elementlarni chizish).
- Grafik belgilash (geometrik shakllar ahamiyatini tushunishi, ular yordamida naqshlarni chizish va ularni belgilar sifatida tasvirlash qobiliyatini o'z ichiga oladi).

yo'zishda qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi: sekin tempdagi, tushunarsiz, xato, tartibsiz yozuv. Shu bilan bir qatorda noto'g'ri grafik ko'nikmani tuzatish nafaqat qiyin balki, ba'zan imkonsizdir.

Yozuvning grafomotor ko'nikmalarini shakllanish jarayoni juda murakkab va u o'z ichiga inson aqliy faoliyatining turli sohalarni qamarab oladi. L.YE. Jurovaning bolalarni savod egallashga tayyorlash bo'yicha izlanishlarida muallif bolalarni savodga aynan o'qish hamda yozish malakalarini egallashga tayyorlashda nutqiy tafakkurning rivojlantirilishi, so'zlarni fonetik tahlili ko'nikmasini tarkib toptirilishiga e'tiborni kuchaytirish lozimligini uqtiradi. L.YE. Jurova o'zining qo'llanmasida bolalarni savodga tayyorlash bilan shug'ullanuvchi tarbiyachilar, ota-onalarga yo'nalishdan kelib chiqqan holda qimmatli tavsiyalarni beradi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan ishlar tashkiloti yuzasidan ish rejalarini hamda mashg'ulotlar ishlanmasini taklif etadi. Ko'pgina mualliflar savodga tayyorlash mavzusini yoritishda savodga tayyorlash muammosi bilan yaqindan ishlovchi tarbiyachi hamda maktabgacha muassasalariga qatnamaydigan bolalar holatida ota-onalar uchun tayyor mashg'ulotlar ishlanmalarini tavsiya etadilar.

Maktabgacha yosh davri barcha ruhiy jarayonlarni rivojlantirish uchun, jumladan nutqni rivojlantirish uchun ham eng quylay davr hisoblanadi. Ma'lumki, bu davrda bola qiziquvchan, taqlidchan bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining asosiy vazifasi esa, bolalarni maktab ta'limiga har tomonlama puhta tayyorlashdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni bir qismini nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar tashkil etadiki, bu toifa bolalar bilan olib boriladigan ta'lim- tarbiya ishlari alohida yondoshuvni talab etadi. Sir emaski, nutq nuqsoniga ega bo'lgan bolalar savod egallashda, ayniqsa, yozuv malakalarini egallashda qiynalishdi. Bunga asosiy sabab qilib, bu toifa bolalarda nutq harakat sohasining jarohatlanganligi, shuningdek, kognitiv ko'nikmalarni yetarlicha rivojlanmaganligini ko'rsatish mumkin. Shu asosda grafomotor ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlarni tavsiya etamiz:

Grafomotor ko'nikmalarni puhta egallash yozuv malakalarini to'la o'zlashtirilishiga olib keladi. Maktabgacha yosh davrda bolalardagi yozuv malakalarini rivojlantirish murakkab jarayonlarni qamrab olsada maktab ta'limini muvaffaqiyatiga zamin yaratadi.

Muhokama. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni, ayniqsa grafomotor malakalarni rivojlantirish, murakkab psixofiziologik va pedagogik jarayon hisoblanadi. Tadqiqotda ko'rsatilganidek, yozuvga tayyorgarlik faqat harflarni yozishni o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki bolalarning mayda motorika, vizual idrok, fazoviy tasavvur va nutqiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, grafomotor ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmagan bolalarda yozuv jarayoni sekin, xatolarga boy va noaniq kechadi. Bu holat, ayniqsa, nutq nuqsoniga ega bolalarda yaqqol namoyon bo'lib, ularning fonematik idrok va nutqiy tahlil ko'nikmalarining sust rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Shu bilan birga, tizimli ravishda olib borilgan mashqlar – chizish, shtirixlash, kontur bo'yicha ishlash, nuqtalami birlashtirish kabi faoliyatlar bolalarda qo'l harakatlarining aniqligi va koordinatsiyasini sezilarli darajada yaxshilashini ko'rsatdi. Bu esa grafomotor ko'nikmalarni rivojlantirishda amaliy mashqlar tizimi samarali vosita ekanligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari inklyuziv ta'lim sharoitida individual yondashuvning ahamiyatini ham ko'rsatadi. Har bir bolaning rivojlanish darajasini inobatga olish, korreksion mashqlarni moslashtirish va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash ijobiy natijalarga olib keladi.

Xulosa. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni murakkab va ko'p qirrali pedagogik-psixologik

jarayon bo'lib, u bolalarning nutqiy, kognitiv va motor rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Grafomotor malakalarni rivojlantirishda mayda motorika, vizual idrok, fazoviy tasavvur hamda qo'l harakatlarining muvofiqligi muhim o'rin tutadi. Yozuvga tayyorgarlik jarayonida muntazam va tizimli mashqlar – chizish, shtirixlash, kontur bo'yicha ishlash, nuqtalami birlashtirish kabi faoliyatlar bolalarda qo'l harakatlarining aniqligi va tezligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, nutq rivojlanishidagi kamchiliklar yozuv jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkinligi kuzatiladi. Inklyuziv ta'lim sharoitida har bir bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, korreksion yondashuvni qo'llash hamda pedagog va ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalarda yozuv malakasini bosqichma-bosqich va samarali shakllantirish imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yozuv ko'nikmalarini rivojlantirishda kompleks yondashuv, ya'ni nutqiy, motor va idrok jarayonlarini birgalikda rivojlantirish eng muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Воронкова В.В. Обучение грамоте и правописанию в 1-4 классах вспомогательной школы: пособие для учителя / В. В. Воронкова. - 2-е изд. - М.: Школа-Пресс, 1995
2. Прищепова И.В. О методике коррекции дизорфографии у младших школьников с общим недоразвитием речи // Письмо и чтение: трудности обучения и коррекция: Учебное пособие / Под общ. ред. О.Б.Иншаковой. - М.: МПСИ, 2001
3. Alimova K. Kh. Peculiarities of the development of graph-motor skills in senior preschool children with speech disorders //conference zone. – 2023. – c. 310-318.
4. Alimova, K. (2021). Problems Of Parental Cooperation In Special Pedagogy. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 311-314.

5. Polat E. S. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2008. — 272 с.

6. Selevko G. K. Современные образовательные технологии: учебное пособие. — М.: Народное образование, 1998. — 256 с.

7. Abdurahmonov Q. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. — Toshkent: Fan, 2012. — 180 b.

8. Yo'ldashev J. Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari. — Toshkent: O'qituvchi, 2015. — 200 b.